



HSM

## O'ZBEKISTON TARIXI



06  
MAVZU

Mo‘g‘illar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi mard va jasur ajdodlarimiz



Boboyorov Bobomurod  
Normatovich



# Reja



1. Markazlashgan mo‘g‘ullar davlatining tashkil topishi. XII asr boshida Xorazm davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
2. Mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoga istilo yurishi va unga qarshi kurash. Istilo oqibatlari.
3. Chig‘atoy ulusi. Undagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol

# CHINGIZXONNING XORAZIMSHOXLAR DAVLATIGA BOSQINI



Temuchin (1155-1227) XII asr oxirlarida mo`g`il-tatar qavmlarini birlashtirib kuchli davlatga asos soladi

1206-yilda Qoraqurumda bo`lgan quriltoyda Temurchin ulug`xon deb e`lon qilinadi va Chingizzon laqabi berildi. “Yaso” va taxxonlar tabaqasi.

1206-1218- yillarda Siber, Sharqiy Turkiston, Yettisuv va shimoliy Xitoyni boysindiradi. Xorazmshohlar davlati bilan elchilik munosabatlari o`rnatiladi. 1216 yilda Xorazmshoh elchisi Bahouddin Roziy Chingizhon qobulida bo`ladi.

Chingizzon elchilarini 1218-yilda Xorazmshoh qabul qiladi.

Xorazmshohlar davlati ichki ixtiloflar sabablari tanazzulga yuz tutgan edi. Muxolifatchi Turkonxotun.

1218-yilda Chingizzon Xorazmga 450 kishilik katta savdo karvoni yubordi. O`tror shaxrida hokim Inolchuq (G`oyrxon) karvonda josuslar borligini fahmlab, ularni qirg`in qiladi.

“O`tror voqeasi” va undan keyin Chingizzon elchisi ibn Kafraj Bug`roning Xorazmshox tomonidan o`ldirilishi Movarounnahrga mo`g`ullarning bostirib kirishiga olib keladi.

Xorazimshox o`z qo'shinini turli shaharlarda joylashtirish, urushda mudofaa taktikasini qo'llashga qaror qiladi.

1219- yilning kuz oyida Chingizzon qo'shinlarining hujumi boshlanadi.



- Mo'g'ullarning birinchi hujumi mustahkam qal'a chegara shahar O'trorga qaratiladi. Shahar mudofaasi 5 oydan ziyod davom etadi. O'tror dushman tomonidan egallandi.
- Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» kitobida ta'kidlanganidek: «..O'trorning butun aholisini sahroga haydab chiqdilar va qatl qildilar. ...O'tror xisorini qo'lga kiritib, yer bilan barobar qildilar. Tirik qolganlardan, ra'iyat va hunarmandlarning ba'zilarini hibsga oldilar, ba'zilarni esa qul qilib haydadilar». (82bet).
- Chingiz qo'shini 1220 - yilning fevralida Buxoro ustiga yopirilib keladi. Buxoro qamali 12 kechayu-kunduz davom etadi, shahar himoyachilari butunlay qirib tashlandi.
- Chingizzon galalari 1220-yil mart oyida Samarqandga hujum qilib, shaharni bosib oladi.
- 1220-yilning aprelida bosqinchilar Sirdaryo bo'yidagi Binokat shahrini egallaydi. Xo'jand himoyachilari ko'rsatgan jasorat alohida o'rin tutadi. Temur Malik boshchiligidagi mudofaa kuchlar qarshiliqi qariyib 5 oy davom etadi. Dushman Xo'jandni egallaydi. 1220-yilning yozida Chingizzon qo'shinlari Naxchob (Qarshi), Termizni bosib oladi.
- Muhammad Xorazmshox Kaspiy dengizidagi Ashura oroliga qochadi, o'gili Jaloliddinni taxt vorisi etib tayinlab, 1220- yil dekabr oyida vafot etadi.
- 1221-yil boshlarida Joji, Chig'atoy va O'qtoy qo'shlari Gurganchga hujum boshlaydilar. Jang 6 oy davom etadi.

- Najmiddim Kubro shahar mudofaasida faol qatnashadi. U Kubraviylik tariqatining asoschisi, mutafakkir, shayx, donishman, tasavvuf ta`limotining asoschisi edi. “Najmuddin Kubro” shayxning taxallusi bo`lib “dinning ulug’ yulduzi” ma’nosini anglatadi U Gurganchda mo’g’il bosqinchilariga qarshi jangda mardonavor shahid bo’lgan.
- Gurganch yakson qilindi, suvgaga bostirildi. Xorazmshox og`illari O`zloqshox va O`qshoxlar qiynab o`ldirildi.
- 1221- yil davomida Xuroson o‘lkasi hududlari tomon hujum boshlab, birin ketin Balx, Marv, Nishopur, hirot, Mozandaron singari boy shaharlar, qal’alarни bosib oldilar.
- Jaloliddin Manguberdi Mo`gi`l bosqinchiligiga qarshi mardonavor kurashgan qahramon.
- Xorazmshoxlar davlatning so`ngi xukmdori Jaloliddin mog`ullarga qarshi Niso shahri yaqinidagi jangda g`alaba qozongan. Gardez qal`asi, Voliyon qal`asi, G`azna yaqinidagi Parvon jangida Jaloliddin Mog`ullar ustidan g`alaba qozongan.



- Mo'g'ul bosqinchiligiga qarshi mardonavor kurash olib borgan xorazm eli qaxramoni. Xorazimshohlar davlating so'ngi xukimdori (1120 - 31).
- Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi 1 – jangi Niso shaxri yaqinida, cho'lida 700 kishilik qo'shinga qarshi bordi. Jangga Jaloliddin 300 jangchisi bilan g'alaba qozongan. Gardez qalasi, Valiyon qalasi, G'azna yaqinidagi Pravon jangida Jaloliddin Mo'g'ullar ustidan g'alaba qozongan.
- 1221 y 25 noyabrda Sind daryosi boyodagi tengsiz jangda mag'lubyatga uchragan Jaloliddin 4 ming janchisi bilan qurshovni yorib o'tib, daryoning narigi sohiliga suzib o'tgan.
- Jaloliddin ko'p yillar davomida mo'g'illarga qarshi qahramonona kurash olib borgan.

## Jaloliddin Manguberdi

Chingizzon katta qo'shin to'plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi otlangan. G'ardiz qal'asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizzon qo'shining ilg'orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizzon qo'shini Jaloliddin Manguberdini daryodan o'tishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo'lgan tengsiz jangda (Sind daryosi bo'yidagi jang) mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan Sindning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi (Bu cho'l hozirda ham cho'li Jaloliy deb ataladi). Chingizzon Jaloliddin Manguberdining bu jasoratidan hayratda qolib, o'z o'g'illariga qarab: "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!", degan.



Jaloliddin Manguberdi haqida uning shaxsiy kōtibi, tarixchi Nasaviy shunday yozadi: “Jaloliddin qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning botirligiga kelganda shuni aytish kerakki, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so‘zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko‘ngil, to‘g‘ri odam edi. U jiddiy shaxs edi. Hech qachon kulmasdi. Juda nari borsa jilmayib qo‘yardi. Uadolatsizliklarni yomon ko‘rardi. Jaloliddin o‘ta qat`iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi.



# Xorazmshohlar davlatining so`nggi hukmdori, mohir sarkarda.



# Najmiddin Kubro



Kubraviylik tariqatining asoschisi, mutafakkir , shayx, donishman, shoir va olim.

1145 y Xorazimning Xivaq shaxrida tug'ilgan. Uning to'liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al – Xorazmiydir.

“Najmiddin Kubro” shayxning taxallusi bo'lib “dinning ulug' yuldiz ma'nosini anglatadi.

Uning asarlari “ Jamol xushbo'boylikari va jalolning kashfi” , “O'nta usul” , “Tariqatlar risolasi” , “Malomatchining malomatidan hazar qiluvchi haqida risola” , “Soliqlar odobi haqida” risola .

Najmiddin Kubro tasavvuf talimotining rivoji va butun musulmon Sharqida keng tarqalishida katta ro'l o'ynadi.

1221 y Gurganchda mo'g'il bosqinchilariga qarshi jangda mardonavor shahid bo'lgan.



1221-yil 25- noyabrdagi Sind daryosi boyodagi tengsiz jangda mag`lubyatga uchragan Jaloliddin 4 ming jangchisi bilan qurshovni yorib o`tib,daryoning narigi ohiliga suzib o`tadi .

Jaloliddin Chingizzxonning katta qo‘shini bilan Sind daryosi qirg‘oqlarida yuz bergen tengsiz jangdagi jasoratiga mp`gul hukmdorining o`zi ham tan berib, lol qolib shunday degan edi:

“Otadan dunyoda hali bunday o`gil tug`ulmagan. U sahroda sher kabi g`olib jangchi, daryoda esa nahang (akula) kabi botir ...Otaga shunday o`g`il zarurki, u ikk girdob – olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa olsin”.

Mirzo Ulug`bek. To`rt ulus tarixi.- T., 1994, 183-184-betlar.

“Bu yurt tengsiz allomalar, aziz avliyolar, podshohu sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko`p ko`rgan. Ular orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdining betakror nomi yulduzdek charaqlab turadi”.

I.A.Karimov. Asrlar, Tom 8,75- bet

# CHIG‘ATOY ULUSINING TASHKIL ETILISHI, UNING •••• IJTIMOIY-SIYOSIY VA IQTISODIY HAYOTI.

Chingizzon 1224-yilda bosib olingan o`lkalarni o`z og`illarniga taqsimlab berdi. Dashti Qipchoq, Itil bo`yi, Xorazm Jo`jiga, G`arbiy Mo`guliston O`qtoyga, Mo`g`uliston, Xitoy va Qirg`izlar yeri Tuluga berildi.

Sharqiy Turkiston, Ettisuv va Movarounnahr yerlari Chig‘atoyga berildi va Chig‘atoy ulusi deb ataldi.

Chig‘atoy (1127-1241) Movarounnahrni idora etish ishlarini Xorazmlik Mahmud Yalovachga topshirdi.

Mahmud Yalovach Movarannahrni boshqaradi.Uning qarorgohi Xo‘jand edi. Harbiy hokimiyat, aholini ro‘yxatdan o‘tkazish, soliq yig‘ish ishlari dorugachi va tamg‘ach deb ataluvchi mo‘g‘ul amaldorlari qo‘lida bo‘ladi.

• • • •

## AHOLIDAN MARKAZIY HOKIMIYAT XAZINASI UCHUN QUYDAGI SOLIQLAR UNDIRILGAN:

1. “Kalon” yoki yer solig‘i.  
Dehqon hosilning o‘ndan  
bir qismini to‘lagan

3. ”Shulen” solig‘i.  
Har bir qo‘ra mayda moldan bir  
qo‘y, ming otdan bir biya olingan.

5. Tuz solig‘i.

2. “Qopchur” solig‘i. Har yuz bosh  
qora moldan bittasi olingan.

4. “Targ‘u” solig‘i. Hunarmandlar va  
savdogarlardan ishlab chiqarilgan  
yoki sotilgan molning o‘ttizdan bir  
qismi hajmida undirilgan.

6. Jon solig`i.  
Kumush solig‘i.

# MAHMUD TOROBIY QOZG'OLINI



1238 - yilda Buxoro yaqinidagi Torob qishlog‘ida hunarmand Mahmud Torobiy boshchiligidagi xalq qo‘zg‘oloni yuz beradi .

Qo‘zg‘olonchilar Buxoroga kelib, mo‘g‘ul amaldorlari, mahalliy zodagonlar, sadrlarni yengib, shaharni egallaydilar. Buxoro sadrlari Mahmud Torobiy hokimiyatini tan olib, uni **Xalifa** deb e’lon qilishga majbur bo‘ladilar. Amaldorlar Buxorodan Karmanaga qochip ketadilar.

Karmanaga qochgan mo‘g‘ul bosqoqlari va amaldorlar qo‘zg‘olonni bostirish uchun Buxoroga yurish boshlaydilar. Jangda qo‘zg‘olonchilar g‘olib kelib, mo‘g‘illarni karmanagacha quvib bordilar Mo‘g‘ul bosqoqlaridan 10 mingi halok bo‘ladi. Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiylar ham jangda halok bo‘ladi. Mo‘g‘ullar yana hujum qiladi Qozg‘olonchilar tor-mor etiladi.

Torobiy qo‘zg‘oloni mo‘g‘ul hukmdorlari uchun mahalliy xalq bilan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish, uchun muhim saboq berdi. Mahmud Yalovach Movarounnahrdan olinib, Pekinga hokim etib tayinlanishi, Movarounnahrni oshqarish Mahmud Yolovchining katta o‘g‘li Ma’subekka berilishi ham qo‘zg‘oloning muhim saboqlaridandir.

# MAS`UDBEKNING (1238-1289) ISLOHATLARI



## Mas'ubek yuritgan siosat va uning natijalari

- Mo'g'ul zodogonlarining urtda qyilgan o'zboshimcha xatti harakatlariga chek qo'yildi
- O'lkada nisbi tinchlik, aratuvchyilik jaraoni hukm surdi
- 1271 - yilda o'tkazyilgan pul islohoti va bir xyil vazndagi sof kumush tangalarning zarb etyilishi o'lkaning iqtisodi-moliavi ahvolini, savdo tijorat ishlarining ancha axshylanishiga turki berdi
- Buxoro, Samarqand, Shosh, Termiz, Farg'ona shaharlarining angidan tiklanishi, ularning savdo-sotiq va hunarmandchyilik markazlari sifatidagi mavqeい ko'taryildi
- Islom dini va uning peshvolari nufuzi tiklandi. Islomning Movarounnahrning rasmi dini sifatidagi mavqeい ortib bordi
- Mo'g'ullar va bir qator turki qavm, elatlarning Movarounnahrga kelib o'troqlashuvi va muqim ashashga moslashuvi jaraoni faollahdi



XIV asrda mo`gullarning Chig`atoy usulida o`troqlashuvi kuchaydi. Chig`atoy xoni Kebekxon (1318-1326) Nasaf shahri yonida saroy (“Qarshi”) qurdirib, o`z qarorgohini Movarounnahrga ko`chiradi. Saroy yonida uylar qurilib Nasaf shahri bilan qoshilib ketadi. Mazkar shahar “Qarshi” deb atala boshlanadi.

Kebekxon davrida Movarounnahr xududlari viloyatlarga, viloyatlar tumanlarga bo`linadi, ularni mahalliy noiblar boshqaradi.

Pul islohati o`tkazilib “dinor”, “dirham” nomli kumush tangalar zarb etilib, muomalaga kiritiladi. Iqtisodiy hayot jonlanadi, shaharlar qayta tiklanadi.

Kebekxon o`rnatgan tartiblar Tarmashirin (1326-1334) va Qozonxon (1334-1346) davrda ham davom etkaziladi.

1346-yilda fitna oqibatida Qozonxon qatl etiladi, siyosiy vaziyat keskinlashib Chig`atoy usuli ikkiga – Mo`g`uliston va Movarounnahrga bo`linib ketadi.

Mo`g`ulistonda hokimiyatni Tug`luq Temur, Movarounnahrda hokimiyatni amir Qazag`on egallaydi.



Mahalliy xalq orasidan ajoyib me'morlar, naqqoshu hunarmandlar yetishib chiqdi. Ularning mahorati bilandi betakror moddiy madaniyat namunalari yaratildi.

Bu davrda bunyod etilgan savdo-sotiq, hunarmandchilik markazlariga aylangan Andijon, Qarshi, Urganch, oldingi mavqeini tiklagan Samarqand, Buxoro, Shosh, Termiz singari shaharlar, ularning o'ziga xos me'morchilik qiyofasi shundan dalolat beradi.

Ko'hna Urganchda qad ko'targan, balandligi 62-metrali minora, Samarqanddagi Shohizinda majmui, Buxorodagi Bayonqulixon, Ko'hna Urganchdagi Najmiddin Kubro, To'rabekxonim, Muhammad Bashar maqbaralari, Xo'janddagi Tubaxon maqbarasi XIII - XIV asrning nodir me'moriy yodgorliklari sirasiga kiradi.

## XIII-XIV ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'RTA OSIYO XALQLARINING MADANIY HAYOTI.



Mahalliy xalq orasidan ajoyib me'morlar, naqqoshu hunarmandlar yetishib chiqdi. Ularning mahorati bilandi betakror moddiy madaniyat namunalari yaratildi.

Bu davrda bunyod etilgan savdo-sotiq, hunarmandchilik markazlariga aylangan Andijon, Qarshi, Urganch, oldingi mavqeini tiklagan Samarqand, Buxoro, Shosh, Termiz singari shaharlar, ularning o'ziga xos me'morchilik qiyofasi shundan dalolat beradi.

Ko'hna Urganchda qad ko'targan, balandligi 62-metrli minora, Samarqanddagi Shohizinda majmui, Buxorodagi Bayonqulixon, Ko'hna Urganchdagi Najmuddin Kubro, To'rabekxonim, Muhammad Bashar maqbaralari, Xo'janddagi Tubaxon maqbarasi XIII - XIV asrning nodir me'moriy yodgorliklari sirasiga kiradi.

# O‘lkada badiiy adabiyot sohasi ham ravnaq topdi.



**XIII-XIV asrlarda  
etishib chiqqan  
badii adabiot  
namoandalari**

- Jaloliddin Rumi (1207-1273) («Masnavii ma’navi»)
- Muslihiddin Sa’di Sherozi (1219-1293) («Guliston», «Bo’ston»)
- Qutb («Xusrav va Shirin»)
- Xorazmi («Muhabbatnama»)
- Safi Saroi («Suxal va Guldursin», «Gulistoni bit turki»)
- Amir Xisrav Dehlavi (1253-1325) («Xamsa»)

Tarixnavis ham taraqqiy topdi. Jurjoniyning «Tabaqoti Nosiri» («Nosir turkumlari»), Juvaniyning «Tarixiy jahon kushoy» («Jahon fotihi tarixi»), Rashididdin Fazlullohning «Jome at-tavorix» («Tarixlar to’plami») kabi tarixiy asarlarda o’sha davr tarixiga doir qimmatli manbalar hisoblanadi.



# MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON TARIXI

```
def dotwrite(ast):
    nodename = getNodeName()
    label=symbol.sym_name.get(int(ast[0]),ast[0])
    print ' %s [label="%s" % (nodename, label),
    isinstance(ast[1], str):
        if ast[1].strip():
            p
        else:
            p
    else:
        print " "
    children = []
    for n, child in enumerate(ast[1:]):
        children.append(dotwrite(child))
    print ' %s -> {' % nodename
    for name in children:
        print '%s' % name,
```



Boboyorov Bobomurod  
Normatovich

